



# “Alisher Navoiy va XXI asr”

**9-ULUSLARARO KONFERANSI**  
*Toshkent-Bursa, 2024-yil 8-fevral*

# “Ali Şir Nevai ve 21. yüzyıl”

**9. ULUSLARARASI KONFERANSI**  
*Taşkent-Bursa, 8 Şubat 2024*

# “Alisher Navo’i and the 21st century”

**9th INTERNATIONAL CONFERENCE**  
*Tashkent-Bursa, February 8, 2024*



بیرت بولغای یردی رعایه  
کبری شریف توقو شاندین  
کلم الناس علی قدر عقولهم  
آندین خبر پرو

maqomlarining poetik taqini	
<b>Maryam ESHMUHAMEDOVA.</b> Alisher Navoiy ta'rifida Ahmad Yassaviy va uning izdoshlari	307
<b>Shahnoza RAHMONOVA.</b> O'zbek epik poeziyasidagi ishqiy-sarguzasht dostonlarda Navoiy an'analari	313
<b>Alisher RAZZOQOV.</b> Navoiy she'riyatida Haqiqati Muhammadiya taqini va komil inson obrazi	318
<b>Sanobar ABDURAXMANOVA.</b> Alisher Navoiy ijodida nasr va nazm uyg'unligi	324
<b>Nafisa RAXMANOVA.</b> Alisher Navoiy "Farhod Va Shirin" dostonidagi obrazlarning adabiy manbalardagi ildizlari	329
<b>III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI</b>	
<b>III OTURUM. ALI ŞIR NEVAÎ'NIN ESERLERININ KAYNAKLARI VE METIN ÇALIŞMAŞLARI</b>	
<b>PANEL III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVOI'S WORKS</b>	
<b>Yusuf TURSUNOV.</b> Navoiy kulliyotlari tarkibidagi "Muhokamatu-l-lug'atayn" asari nusxalarining ba'zi xususiyatlari haqida	335
<b>Boqijon TO'XLIYEV, Ilyos ISMOILOV.</b> Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro"si nodir adabiy manba	339
<b>Prof. Dr. Azizağa NECEFZADE.</b> Mir Ali Şir Nevai'nin Eserlerinin Bakü Nüshalari	344
<b>Aftondil ERKINOV.</b> Alisher Navoiy devonlarining aniqlangan yangi nusxalari (2010–2024-yillar)	348
<b>Prof. Dr. Emek ÜŞENMEZ.</b> British library'deki Alî Şir Nevâ'î yazmalari üzerine	355
<b>Shavkat HAYITOV.</b> Badiiy nasrda Quro'ni karim oyatlarining o'rni	363
<b>Zukumor MIRZAYEVA.</b> "Majolis un-nafois"ga yangicha yondashuv tajribasi (xorij navoiyshunosligi misolida)	374
<b>Azadbey ALIMOV.</b> Alî Şir Nevâ'î'nin "Hamset-ül-Müteheyirîn" Eseri Edisyon-Kritik Metini Üzerindeki Çalışmalar	382
<b>Zokirjon MAMAJONOV.</b> Yozuv asosidagi san'atlar va intertekstuallik	388
<b>Yılmaz CANKALOĞLU.</b> Devlet Şah'ın Tezkiretü's-Şuarâ' ve Hüseyin Baykara'nın Risâle Eserinde Alî Şir Nevâî	393
<b>Umedullo MAHMUDOV.</b> Munshaot janrining turkiy adabiyotga intiqoli xususida	396
<b>Oysara MADALIYEVA.</b> "Badoyi' ul-bidoya" devoni qo'lyozmalari va tadqiqi tarixiga nazar	400
<b>Akrom MALIKOV.</b> Alisher Navoiy matnlarini kontekstual tahlil metodi asosida tadqiq qilish muammosi	409
<b>Dilnoza RUSTAMOVA.</b> Alisher Navoiy toshbosma devonlariga kirgan boshqa she'rlar	417

## BADIIY NASRDA QURO‘NI KARIM OYATLARINING O‘RNI

**Shavkat HAYITOV**

*Filologiya fanlari doktori, professori*

*Buxoro davlat universiteti*

*DOI: 10.52773/tsuull.navoiyconf.2024/EJRV4814*

**Annotatsiya:** Maqolada Hazrat Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari Qur‘oni Karim matni bilan muqoyasa qilib o‘rganilgan va «Mahbub ul-qulub» uchun Qur‘on muhim manbadir, degan xulosaga kelingan. «Mahbub ul-qulub»da Qur‘onga tayanish, undan iqtiboslar ko‘chirib, axloqiy masalalar mohiyatini yoritish, asoslash va sharhlashda keng amal qiladigan asosiy uslubiy tamoyillar aniqlangan. Maqola muallifi Alisher Navoiyning oyatlarni asliyatda qo‘llab, teran axloqiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ilohiy-irfoniy masalalarni badiiy matnga singdirish uslubining rang-barang qirralarini ochishga harakat qilgan.

**Kalit so‘zlar:** *badiiy nasr, Quro‘ni karim, oyat, hadis, qissa, timsol, fasl, bob, tanbih, manba, sarchashma, muqaddima, mundarija, tasnif.*

**Abstract:** The article examines the work of Hazrat Alisher Navai “Mahbubul-Kulub” in comparison with the sacred text of the Koran and concludes that the Koran is an important source for “Mahbubul-Kulub”. Based on the Koran and quoting from it, “Mahbubul-Kulub” outlines the basic methodological principles that are widely applicable in clarifying, justifying and commenting on the nature of moral issues. The author of the article tried to reveal the colorful aspects of Alisher Navoi’s method of incorporating deep moral, philosophical, socio-political, theological and mystical issues into the literary text, using the original poems.

**Key words:** *fiction, Holy Quran, verse, hadith, story, symbol, season, chapter, tanbih, source, summary, introduction, table of contents, classification.*

Hazrat Alisher Navoiy nasriy asarlari matniga singdirilgan Qur‘oni majid oyatlari, qissa va timsollarining fasl, bob, tanbihlar asosida turgan axloqiy masalalarni yoritishdagi o‘mi va ahamiyati beqiyosdir. O‘z navbatida ulug‘ mutafakkir asarlarini ayni nuqtayi nazardan o‘rganish Alisher Navoiy ijodiga xolisona baho berish, uni yaxlit tarzda ilmiy tadqiq qilish imkoniyatini yuzaga chiqaradi. Buyuk ijodkor badiiy mahoratining asl sarchashmadan, muqaddas moziydan nur emgan olmos qirralarini yoritishga shart-sharoit yaratadi. Maqsad va mohiyati bilan insoni komil tarbiyasini ko‘zda tutgan «Mahbub ul-qulub» asarida Odam Ato farzandlarini Allohga yaqin qilish g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. «Bismillohir-Rahmonir-Rahim» bilan boshlangan asar an‘anaviy muqaddimasidagi har bir jumla shariati islomiya ruknlariga muvofiq holda zikr qilingan. «Navoiyning kitoblarida uyg‘unlik ularning muqaddima qismidayoq boshlanadi. Uning har bir

asarning muqaddimasi shu asarning mundarijasiga uyg'unlashgan», - deb yozadi akademik Alibek Rustamov (6, 147).

Fasl, bob va tanbihlarning dastlabki satrlarida (ekspozitsiya) muallif tasvir etilayotgan axloqiy muammo tabiatini ochuvchi Qur'on oyatlarini keltiradi. Badiiy-falsafiy talqinga zamin hozirlaydi. So'ngra fasl (bob, tanbih)ning keyingi rivojini belgilovchi jumlar tug'roda turgan o'sha o'zak nuqtaga ulanaveradi. Alisher Navoiyning «Baqara (30)», «Ar-Rahmon (60)», «Qasas (76)» oyatlariga murojaatida xuddi shu usul kuzatiladi.

Oyati karima, fasl, bob va tanbihlarning yakuniy qismida beriladi. Tasvir asosida turgan ijtimoiy tabaqa, axloqiy-tasavvufiy masala, badiiy maqsadni mufassal ochish va tasdiqlash, hayotiy-falsafiy mulohazalarni haqqoniy dalillash uchun fikr manbayiga murojaat qilinadi. Tahlil qilingan fasl va boblarda muallifning ayni badiiy uslubi «Saf (13)» surasiga tegishli oyati karimalarni badiiy asar matni bilan qiyoslab o'rganish orqali asoslab berilgan.

Oyatdan iqtibos olinib («Zumar (10)», oliy etnografik hodisalardan yirik axloqiy-tasavvufiy xulosalar keltirib chiqarilgan.

Oyatlarni («Van-n-najm (3-4)» asliyatda qo'llash bilan asoslash va tavsiflash san'atining oharli qirralari kashf etilgan.

Professor Rahim Vohidovning ham ayni masalaga doir xulosasi ibratlidir: «Hayrat ul-abror»ning tabiati uchun falsafiy, ijtimoiy-siyosiy mayl mos tushadi. Shuning uchun bu asarda ruhiy kechinmalarni bo'rttirishdan ko'ra, falsafiy teran mushohadalarga zo'r beriladi. Ana shu hukm barcha na'tlar uchun ham xosdir» (1, 91). Ayni ta'kidlar Hazrat Alisher Navoiyning barcha nasriy va nazmiy asarlari jumladan, «Mahbub ul-qulub» uchun ham begona emas. Ulug' Navoiyning Qur'onga munosabati, undagi insonparvarlik g'oyalarini ijodiy rivojlantirish, axloqiy masalalarning badiiy talqinida qur'oniy mavzulardan foydalanishdagi mahorati asarning asosiy qismida muqaddimaga uyg'un holatda davom etadi. Masalaga ana shu jihatdan qarab, asar manbayini yorqinroq ko'rsatish uchun «Mahbub ul-qulub»da qur'oniy mavzular talqinini quyidagi tasnif asosida o'rganish ma'qul ko'rildi:

1. Ilohiy so'z va oyatlarning fasl, bob va tanbihlar bag'rida aynan (asliyatda) qo'llanilishi.
2. Axloqiy masalalar talqinida qur'oniy qissa va siymolarga murojaat.
3. Badiiy matnga oyati karimalar mazmunining singdirilishi.

Ilohiy so'z va oyatlarning fasl, bob va tanbihlar mag'zida aynan (asliyatda) qo'llanilishi asar "Muqaddima"sidayoq nazarga tashlanadi:

«Kalomi sha'nida «Va mayantiqu 'anil havo» va nutqi bayonida «Inna huva illa vahyun yuho». Asrori ilohig'a zoti amin va inoyati nomutanohiydin oti – «rahmatun lil olamin» (3,4). «Mahbub ul-qulub»dan ko'chirganimiz iqtibos to'lig'icha «Va-n najm» surasining dastlabki qismiga daxldor oyati karimalar asosida yozilgan. Ulug' mutafakkir suraning 3- va 4- oyatlarini asliyatda aynan ko'chirgan (10,526). Ikki oyati karima mantig'iga uyg'un, qo'shaloq, ohangdosh so'zni («shanida», «bayonida») saj'langan qatorlar boshida, oyatlar oldidan tizib, jozibali manzara yaratilgan. Alisher Navoiy Rasullulloh tabiatidagi til va dil birligi, rostgo'ylik kabi go'zal xislatlarni ham Ilohiy kitobning o'sha oyatlari asosida talqin qilib, mahorat ko'rgazgan. "Yana u (Qur'onni) xom xayoldan olib so'zlayotgani ham yo'q" (12,526) oyati karimasi Muhammad allayhissalomni har qanday shaxsiy g'arazlardan pokiza, beqarorlik, mutakabbirlik, omonatga xiyonat kabi illatlardan hazar qiluvchi, lafzi toza, haqqo'y inson sifatidagi xususiyatlarini yorqin ochadi. "U (Qur'on) faqat (Alloh tomonidan) nozil qilinayotgan (tushurilayotgan) bir vahiydir" (12,526) oyati karimasi zaminida ham so'nggi payg'ambar ta'rifiga daxldor olam-olam ma'no bor. Matnda mazkur oyatni keltirish bilan vahiyi qabul qilish va uning bir harfiga ham gard qo'ndirmay, Parvardigor bandalariga yetkazish salohiyati nabiyi arabiydagina mavjud edi, degan fikr olg'a surilgan.

«Mahbub ul-qulub» avvalgi qismining avvalgi fasli «Odil salotin zikrida» deb nomlanadi. Muallif faslning birinchi jumlasidanoq o'quvchi diqqatini asosiy mavzuga jalb qiladi: «Odil va oqil podshoh ibodullohg'a zillulloh». (4,8). Sarlavha boshidagi so'zni («odil») dastlabki jumla ibtidosida takrorlash bilan tasdir san'ati hosil qilingan. Tasdir yonida musajja' san'ati ham turadi. «Oqil» bilan «odil», «ibodulloh» va «zillulloh» kalimalarining ma'noviy uyg'unligi tanosub san'atini hosil qiladi. Matndagi «zil»ning (soya, homiy) ma'nolari esa ikki talqinga yo'l ochadi: a) odil va oqil podshoh Allohning soyasidir; b) odil va oqil podshoh Alloh bandalarining homiysi, himoyachisidir. Ko'rinadiki, lutf san'ati adibga ko'makka kelgan. «Ibodulloh» va «zillulloh» so'zlari xayolni samoga ulaydi. Navbatdagi jumlada bu yorqin ko'rinadi: «Xilofat mulki oning farmonida, «inni joylun fil arzi xalifah» oning shonida» (4,8). Mazkur jumla tarkibidagi «xilofat», «mulk», «farmon» kalimalarining ma'nolari «Baqara» surasining 30-oyati karimasi mohiyatiga to'la hamohang. Iqtibosning mazkur so'zlardan tuzilgan qismi avvalgi jumladagi fikrni ochishga, dalillashga xizmat qiladi. Zero, Qur'on hukmiga ko'ra, olamdagi hamma mavjudotlar, jumladan, yer va undagi barcha ne'matlar Allohga tegishli. Ularni bor qiluvchi xam, yo'q qiluvchi ham yolg'iz O'zi. Shunday bo'lgach, «mulk»ka hukmdorlik va «farmon» berish yolg'iz Qodiri qudratning haddigagina sig'adi. Matndagi «xilofat» so'zi maqsadni oydinlashtiradi: podshoh Allohning yerdagi vakili, o'rinbosari. Xudovandi karim yerda o'zi xalq etgan barcha narsalarni inson uchun xizmat qilishga bo'yinsundirib, jamiki mavjudotlar ustidan hukm yuritishni unga topshirib qo'ygan. Jamiyat esa podshoh tomonidan idora etiladi. «Odil podshohlar zikrida»gi fasl zaminida adolatni targ'ib qilish, shohning mamlakat tinchligi, ulusning farovon, baxtiyor hayotini ta'min etishdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatish g'oyasi turadi. Ulug' mutafakkir ta'kidicha, insoniyatga yo'lboshchilik qilishga har kim ham munosib emas. Oyat va Odam alayissalom qissasining o'zak masalasi «Men yerda xalifa (Odam) yaratmoqchiman» (12,6) ilohiy jumlasida zuhur etadi. Alisher Navoiy insoniyat otasi sha'niga Parvadigor tomonidan aytilgan ushbu tabarruk iqtibosdan oqil podshoh siymosini yaratishda foydalanadi. Asarning «Fosiq va badmaosh, bahodirlik lofin urg'onlar zikrida»gi 7-faslida ham Alloh va shoh talqini yonma - yon keladi. Axloqsiz va maqtanchoq navkarlardan tuzilgan qo'shinning ma'naviy qiyofasi, eng avvalo, uning Allohga ibodat qilmasligi va podshoh amrini bajarmasligida namoyon bo'ladi. Fasl mana bu jumla bilan ochiladi: «Shoh eshigida yormoqni zo'ye' qilg'uvchi jamoatkim, alardin ne Tengriga toatdur va ne shohga itoat» (4,16). Shundan keyin mamlakat va saltanat ofati hisoblangan ushbu toifaning Alloh va uning xalifasi dargohiga xush kelmas axloqiy noqisliklari birma-bir zikr qilinadi. Muallif shariat ahkomiga ko'ra, kabira gunoh hisoblangan yolg'onchilik, mayxo'rlik, iymonsizlik kabi illatlarni ularga nisbat beradi: «Chin demaklari lof, ma'niliq so'zlari gazof. Jur'akashlik dinlari va kofirvashlik oyinlari» (4,16). Talmeh san'atini ishga solib, lofchi tabaqaning maqtanchoqlik xususiyatini yorqin ko'rsatadi: «Bazmda da'volari Hotamliq, razmda taloshlari Rustamliq». Ko'rinadiki, ulug' adib Sharq kitobxoniga tanish saxiylik va qahramonlik ramzlarini badiiy tasvir asosida turgan ijtimoiy toifa mantiqiga qarama-qarshi qo'yib, undagi axloqiy noqislikning muhim bir jihatini ustalik bilan ochadi. Hamvazn talmeh moddalari (Hotam, Rustam) va ular mohiyati to'la-to'kis aks etgan ohangdosh so'zlar (bazzm, razm) oqimi fikrni go'zal shaklda yuzaga chiqargan. Ma'lumki, jangda askardan o'ta chaqqonlik va g'ayrat talab qilinadi. Alisher Navoiy fosiq lashkar tabiatini ochishda hajviy usullardan foydalanadi. Adib mohirligi bois «yurt qo'riqchilari»ning kiyimlari, harbiy aslahalari hajviy vosita vazifasini bajaradi. Badiiy ifoda kinoyaviy tus olib, «qahramon»ning jang maydoniga teskari bo'lgan, beso'naqay surati o'quvchi ko'zi oldida gavdalanadi. Surat tasvirida siyratdagi befahmlik, beparvolik, maishatbozlik xususiyatlari nomoyon bo'ladi. Ulug' adib tasviricha, bunday askarning bosh kiyimiga sanchilgan jig'adan «Nasri toyir» yulduzi qo'rqib qochadi. Qo'lidagi nayzasi esa samodagi «Simoki romih» yulduzi yuziga chandiqlik soladi. Beso'naqay sallasi pechidan o'z yelkasi ozor tortadi (4,16). Adib

sarbozlar tabiatidagi shuhratparastlik, fosiqlik illatlariga e'tiborni tortar ekan, mayxo'r va yomon ishlar bilan shug'ullanuvchi kimsalar nasibasiga do'zax bitilganligi haqidagi islomiy aqidani satrlari mag'ziga singdiradi: «Mulk dushmani daf'ig'a shuhratlari, shohg'a mulk asrar minnatlari. Bu da'vo boshig'a yetguncha nechasini may o'lturub, nechasini o'zga fisq do'zaxga yetkurub» (4,17). Shundan keyingi jumlar va fasl xotimasiga ilova qilingan qit'a to'liq Qur'onning «Saf» surasi bilan hamohang. Mazkur suraning 4-oyati karimasidan o'qiymiz: «Albatta, Alloh o'zining yo'lida go'yo tutash binolardek bir saf tortib, jang qiladigan zotlarni sevar» (12,551). Alisher Navoiy nomunosib harbiy toifa tabiatini ochishda fasl boshida namoyon bo'lgan uslubni davom ettirib, maqtanchoq lashkar xususiyatlarining iymon va islom talablariga zid jihatlarini ochishga urg'u beradi. Talqin qilinayotgan harbiy tabaqaning jangdagi vaziyati ko'chirganimiz oyati karimaga teskari (kontrast) qiyoslash oqibatida uyg'unlashadi: «Muboriz afkanliklari o'z holig'a, safshikanliklari o'z yasolig'a» (4,17). Mazkur jumla hozirgi o'zbek tilimizga Inoyat Maxsumov tomonidan quyidagicha tabdil qilingan: "Bular jang maydonida bahodirlik lofin uradilar va dushman safini buzish o'rniga o'z sheriklarini bosadilar" (5,20). «Saf» surasining 5-oyati karimasi «... (Zotan) Olloh fosiq, itoatsiz qavmni hidoyat qilmas» ilohiy jumlasiga bilan intiho topsa, 7-oyati karimasi Olloh sha'niga yolg'on to'qigan zolim kishilarga qarata: «Olloh bunday zolim qavmni hidoyat qilmas» – deya yakunlanadi (11, 410-411). Alisher Navoiy fasl sarlavasidayoq nomunosib harbiy toifaning bu ikki (fosiqlik, yolg'onchilik) xususiyatiga diqqatni jalb qilgan. Suraning 8-oyati karimasini o'qiylik: «Ular Ollohning nurini (ya'ni Islomni) og'izlari (ya'ni behuda gaplari) bilan o'chirmoqchi bo'lurlar. Olloh esa, garchi kofirlar istamasalar-da, o'z nurini (ya'ni dinini) to'la (ya'ni har tarafga) yoyguvchidir» (11,411). Fikrimizcha, 7-fasldan o'rin olgan mana bu satrlar ko'chirganimiz oyati karima asosida yuzaga chiqqan: «Shohg'a sipoh darveshlar duosidur, fuqaro himmati va Tengri rizosidur... Shohg'a to davlat bor, dushman erur xor va xokisor. Davlatg'a yetkurguvchi Tengri, ham olg'uvchi, ham berguvchi Tengri. Ul bersa kishi ola olmas, Ul bitkursa kishi yiroq sola olmas» (4,17). Alisher Navoiy aqidasiga ko'ra, podshoh Xudoning o'rinbosari. U – din homiysi, Alloh bandalarining himoyachisi. Demak, fosiq harbiy guruh nafaqat podshohga muxolif, balki Allohning ham dushmanidir. Agar yaratuvchi iltifot qilsa, podshoh bayrog'i doimo zafar bilan ziyatlanadi: «Shohkim anga Haq inoyati sipoh bo'lg'ay, livosining ziynati «nasrun min-alloh» bo'lg'ay» (4,17). Ulug' mutafakkir 61-suraning 13-oyati karimasidan bir qismini aslyatda keltirgan. Oyating to'liq matni quyidagicha: «Va uxro tuhib-bunaho nasrun min-allohi va fathun qaribun va bashshiril mo'minina» (10,552). Mazkur oyati karima Alouddin Mansur tomonidan o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilingan: "Va (Olloh sizlarga) yana sizlar suyadigan (bir ne'matni ham berurki, u) Olloh tomonidan bo'lgan g'alaba va yaqin (da ro'y berguvchi Makka) fathidir. (Ey Muhammad), mo'minlarga (mana shu) xushxabarni yetkazing!" (11,411). Alisher Navoiy Qur'oni majidning mazkur oyati karimasidan fasl mantiqi, o'z badiiy-falsafiy maqsadiga mos holda foydalangan. Uch til – o'zbek, fors, arab zabolari imkoniyatlarini ishga solib, fasl mazmuni yaxlitligini saqlagan holda oyati karimadagi saj'ga mos saj' topib (Olloh-sipoh), ilohiy kalomning sehru sadosini nuqsonsiz saqlashga erishgan. «Saf» surasining oxirgi 14-oyatida «Ey mo'minlar, sizlar am xuddi (havoriylar kabi) Ollohning yordamchilari bo'lingiz» – deya xitob qilinadi (11,411). Mazkur oyati karima butun hukmdorlik faoliyati davrida islom dinini qo'llab quvvatlagan, oyatlar bashoratiga ko'ra ish tutgan Amir Temur hayotini yodga tushiradi. 7-faslning so'nggi jumlasiga ko'chirganimiz oyati asosiga qurilgan bo'lib, sohibqiron Temur taqdirida tasdig'ini topgan tarixiy haqiqatga o'ng keladi: «Shohki, haq amrin bajo kelturgay, bu davlat ko'p xavflar'ga rajo yetkurgay» (4,17). Fasli mohiyatini umumlashtiruvchi, xotimada berilgan she'r manbayi ham 61-suraning 13-va 14-oyati karimalaridir. Fikr tasdig'i uchun she'r matnini to'liq keltiramiz:

Shaheki, sidqi aning Tengri bila tuz bo'lg'ay,  
Ne g'am adusi aning bir yo'q ersa, yuz bo'lg'ay.

Kishiga Tengri berur fath, yo'qki, xaylu sipoh,  
Bas, e'timod anga aylamak ne so'z bo'lg'ay (4,18).

Ehson bayoniga bag'ishlangan 9-tanbihdan o'qiyimiz:

«Yana bir amri azim ehsondurkim, aning bayonida ko'p so'z ayondur. «Al inson abidul ehsoni» onga dol va «al jaza ul-ehsani illal ehsan» anga guvohi hol. Jami' mazohib va milal ahli qoshida sobitdurkim, yaxshiliq jazosi yo'qtur-bajuz yaxshiliq va nubuvvat lisoni mo'jiz bayonig'a bu ishorat o'tubturkim:» Ahsin kamo ahsana-l-lohu ilayka». Ul hazrat mundoq amr etibdurki: «Yaxshiliq yetkur, andoqkim, Tengridin senga yaxshiliq yetibdur» (4,107). Dastlabki jumladagi «amri azim» ikki ma'noga ega: birinchisi ulug' buyruq, ya'ni ulkan ishga buyurish, hidoyat yo'liga undash mazmunida bo'lib, amr beruvchi - Alloh, «amri azim»ning ikkinchi ma'nosi – «buyuk ish, zo'r harakat» hisoblanib, u ehsonning umumiy tavsifiga qaratilgan. Qur'oni karimning 2/195, 215, 219-220, 254, 261-274/, 3/92, 117, 134/, 4/36, 37, 38, 39, 149/, 9/34, 99, 120-121/, 13/22- 23/, 14/31/, 24/22), 25/67), 28/54, 76/, 30/38), 32/16), 35/29-30/, 47/38/, 57/7, 10/, 63/10/, 64/16-17/ va boshqa ko'pgina suralarida ehson mavzuyi yoritiladi. Eslatganimiz jumlaning o'ng pallasi – «aning bayonida ko'p so'z ayondur»dan murod ham ayni mana shu axloqiy mavzuning talqiniga Ilohiy kitob va Hikmatda keng o'rin berilganligiga e'tiborni qaratishdir. Ikkinchi jumlada Hikmatdan bir namuna va Qur'ondan to'liq bir oyat keltirilgan. Hadis va oyatni matnda bir-biridan ajratib, ularning alohida ko'zga tashlanishini ta'minlovchi, jumla tarkibidagi qatorlar chegarasini belgilovchi saj'lar ham badiiy-g'oyaviy maqsadga muvofiq. Hadisga nisbatan qo'llanilgan «dol» dalolat qiluvchi, yo'llovchi ma'nosini ifodalasa, oyati karima matnidan so'ng bitilgan «hol» o'z oldidagi «guvoh» (shohid) mazmuni bilan uyg'unlashib, yuqoridagi fikr tasdig'iga xizmat etadi. Shunday qilib, asardagi yetakchi san'at (musajja') mohiyatini bekamu ko'st aks ettirgan so'zlar (dol-hol) hadis va oyatni bir-biriga bog'lab, jumllararo uzviy aloqa-mantiqiy butunlikni tayin etgan. Hadis va oyat tarkibidagi so'zlar bir-biri bilan hamohang bo'lib, saj' hosil qiladi. Shuningdek, muallif tomonidan saralangan musajja' unsurlari ilohiy kalimalar bilan ohangdoshlik kasb etadi: dol-hal-illal-hol kabi. Hadis matnidagi «abid» - «abd» ning ko'plik shakli bo'lib, «qul», «banda» ma'nolarini ifoda etadi. Muallif mazkur tanbihning so'nggi jumlasida qayd etganidek, yaxshiliklarning jami – «ehson» mazmunini beradi. Shunga ko'ra, hadisi sharif «Inson yaxshiliklarning quli» deb tarjima qilinadi. Hadis bilan yonma-yon kelgan oyati karima esa «Ar-Rahmon» surasiga daxldordir. Suraning dastlabki oyatini birgina ilohiy kalima - «Ar-Rahmon» tashkil etadi. Undan keyin keluvchi barcha oyati karimalar uni to'ldirishga xizmat qiladi. Allohning insonga ko'rsatgan eng ulug' marhamati unga Qur'onni o'rgatgani ekanligi birinchi bo'lib shu o'rinda zikr qilinadi. 60-oyatda esa o'qiyimiz: «al jaza ul-ehsani illal ehsan». Oyati karimaning «Ar-Rahmon» surasida joylashgan o'rni va mazmunini inobatga olgan mufasssirlar uni bu dunyoni yaxshi ishlar va ibodat bilan o'tkazgan kishilarga boqiy dunyoda jannat mukofoti beriladi, tarzida sharhlaydilar. Daraqiqat, oyati karimaning mazkur ma'nosi 9-tanbihda ham amal qilib, ulug' mutafakkir kishilarni iymonli bo'lishga va solih amallar qilishga da'vat etadi. Biroq «Mahbub ul-qulub» satrlarini bezagan ilohiy jumlaning matndagi badiiy-g'oyaviy vazifasi shu bilangina cheklanmaydi. Muallif oyati karima vositasida Allohning insonga ko'rsatgan hadsiz-hisobsiz ehsonlariga diqqatni jalb qiladi. Yaxshilikka yaxshilik bilan javob bermagan, baxil kimsalarning xor bo'lishiga ishora qiladi. Ilohiy jumlar ila muzayyan badiiy tasvir umumiylikdan alohidalikka, aniq hayotiy tasavvurlar hosil qilishga qaratiladi. Ko'chirilgan 4-jumla tarkibidagi ilohiy iqtibos shu muddao yo'lida 9-tanbihda «Qasas» surasining quyidagi oyati karimasidan olingan: «Vabtag'i fimo ato kallohud doral oxirata va lo tansa nasibaka minad dunyo va ahsin kamo ahsanallohu ilayka va lo tabg'il fasoda fil arzi innalloha lo yuhib-bul mufsidina» (10,394). Mazkur oyati karima Shayx Abdulaziz Mansur tomonidan hozirgi o'zbek tilimizga quyidagicha tarjima qilingan: «Alloh senga ato etgan narsa bilan oxiratni istagin va dunyoda bo'lgan nasibangni ham unutmagin. Alloh senga

ehson qilgani kabi sen ham (odamlarga) ehson qil! Yerda buzg'unchilik qilishni istama! Chunki Alloh buzg'unchilarni suymas", – dedilar (12,394).

To'qqizinchi tanbihning uchinchi jumlasida adib «Ar-Rahmon» surasining 60- oyatida bayon qilingan «Ehson (ezgulik)ning mukofoti faqat ehson (ezgulik)dir» (12,533) haqidagi ulug' g'oya barcha millatlar tomonidan e'tirof etilganligi, uning hamma ta'limotlarda amaliy jihatdan isbot etilganligini qayd etadi. Tahlilga tortilayotgan navbatdagi 4 - jumlada esa mazkur ilohiy amrga teskari borganlarning fojiali qismatiga e'tiborni qaratadi. Eslatganimiz «Qasas» surasining 76-82-oyati karimalarida zikr qilinishicha, Muso payg'ambar qavmidan bo'lgan Qorun Ilohiy kitobning ushbu da'vatiga shak keltiradi. Alloh tomonidan berilgan boyliklarini «O'zimdagi bilim tufayli» qo'lga kiritdim, deya xayr-u ehson nimaligini bilmaydi. Foni dunyoning o'tkinchi hashamatu savlatiga o'ch bo'lgan kimsalarning hirsini qo'zg'ab, o'zi va davlatini ko'z-ko'z qiladi. Oqibatda esa Alloh g'azabiga uchraydi. Uni Parvardigor amriga ko'ra butun boyligi bilan yer yutadi. Sa'diy «Guliston» idan o'qiyimiz: «Muso allayhissalom Qorunga pand va nasihat etdikim, Haq taolo senga ko'p mol ehson etdi. Sen dog'i xalqqa andoq ehson qil. Bu nasihatni Qorun qabul qulog'i bilan eshitmay, inod zohir etdi, eshitdingkim, aning oxiri ne yerga yetdi» (8,95). Ikki sarchashmadan (ilohiy, adabiy) mohirlik bilan foydalangan Alisher Navoiy o'nlab sahifalarni qoralab, yoritish mahol bo'lgan axloqiy-falsafiy sifat (ehson) tabiatini 4-5 jumlada ochishga erishadi. «Mahbub ul-qulub»da kundalik hayot tarzida uchraydigan oddiy voqealar bayoniga yirik axloqiy-falsafiy ma'noni singdirish maqsadida Ilohiy kitob oyatlariga murojaat qilinadi. Bu jihatdan asar xotimasidagi mana bu jumlar alohida qiziqish uyg'otadi: «Agar ul furja zohir bo'lg'an takmili uchun yana xisht solilsa, «arz ul-lohi vosi'atun» yuzin, balki kurrai arz davrasin tamom xisht solmoq lozim kelur. Bovujudu ulkim, bu mahol xayolni kishi taaqqul qilsa, tuganmagining imkoni yo'qtur» (4,164-165). Iqtibos tarkibida «Zumar» surasi, 10-oyati karimasidan iqtibos keltirilgan (11,325). Mufasssirlarning yozishicha, ushbu oyati karima hijrat haqida nozil bo'lgan. Agar mo'min-musulmonlar din va ezgulik dushmanlari tomonidan ta'qib qilinsa, o'z kindik qoni to'kilgan zaminda toat-ibodatlarini erkin amalga oshira olmasalar, ularga iymon-e'tiqod daxlsizligi ta'minlangan boshqa joylarga hijrat qilish buyurilgan. Shuning uchun oyati karimada «Ollohning yeri keng»ligi ta'kidlanib, Parvardigor ibodati uchun g'urbatni ixtiyor etib, musofirat mashaqqatlariga bardosh berganlarga Tangrining «ajr-mukofotlari hisob-kitobsiz, to'la-to'kis qilib berilishi» uqtirilgan. Hazrat Alisher Navoiy oyati karima mundarijasidan mutlaqo boshqa, o'ziga xos g'oyaviy-badiiy maqsad yo'lida foydalangan. Ulug' matafakkir o'z tanbihi mag'zida oyatdan iqtibos keltirish orqali inson hirsini qo'zg'agan ehtiyojlarning chek-u chegarasi yo'qligi, yelib-yugurib ularni hech qachon ado qilib bo'lmasligi, shunday ekan, odam zoti jism-u nafs ehtiyojlarini jilovlab, qanoatni hayot tarziga singdirib yashashi lozimligini ta'kidlagan.

«Mahbubul-qulub»da mavzu taqozosiga ko'ra kalimayi tavhid (106), Parvardigorning sifatleri (107, 121, 128), «Qur'on» va hikmat zaminida yaratilgan ayrim duolar (4, 14, 27, 28, 29, 92, 107) ham asliyatda keltirilgan. Didaktik asarda qo'llanilgan mazkur uslub axloqiy mavzularning badiiy talqinida qo'l kelgan. Turkiy matn ichida arabiy iboralarning kelishi kitob mutolaasini murakkablashtirmagan. Aksincha, dunyoga ko'z ochild, shariat ahkomlari ruhida tarbiya ko'rgan, ilohiyot olamiga oshno bo'lgan kitobxonni buyuk mutafakkir ijodxonasiga yaqinlashtirgan. Fasl, bob, tanbihlar mag'zida o'ziga tanish, tabarruk iboralarga duch kelgan o'quvchi nazdida nasriy asar qimmatini oshirgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: Бухоро нашриёти, 1994. – 208 б.
2. Кароматов Х. Ўзбек адабиётида Куръон мавзулари: Филол. ф. докт. дисс. – Тошкент: 1993. – 281 б.



3. علي شير النواني. محبوب القلوب.3. Бухоро санъат музейи хазинасидаги 27780-рақамли қўлёзма. – 121 в.
4. علي شير النواني. محبوب القلوب. Сводный текст. – М. – Л. Изд. АН СССР. 1948. – 174 стр.
5. Навоий А. Маҳбубул-қулуб. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 112 б.
6. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 213 б.
7. Саримсоқов Б. Сажъ ва унинг ўзбек фольклорида тутган ўрни. Филол. фанлари номзоди ...дис. – Тошкент, 1973. – 156 б.
8. Саъдий Шерозий. Гулистон. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 101 б.
9. Қасас ул-анбиё. – Душанбе: Ориёно, 1991. – 398 сах.  
القرآن الكريم. – المدينة المنورة: مكتبة خادم الحرمين الشريفين. 1405. – 604 ص 10
11. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳл таржима муаллифи Алоуддин Мансур. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1992. – 496 б.
12. Қуръони карим. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. Тошкент: Munir, 2021. – 624 б.
13. Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. – Тошкент: Фан, 1970. – 330 б.
14. Хусайний, Атоуллоҳ, Бадойиъус-санойиъ. – Тошкент: Ғ.Ғафур номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 400 б.

## “MAJOLIS UN-NAFOIS”GA YANGICHA YONDASHUV TAJRIBASI (XORIJ NAVOIYSHUNOSLIGI MISOLIDA)

**Zulxumor MIRZAYEVA**

*ToshDO TAU professori, filologiya fanlari doktori*

*zmirzaeva1313@gmail.com*

*DOI: 10.52773/tsuull.navoiyconf.2024/JCSJ7504*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”ga yangicha yondashuv tajribasi eron olimasi tadqiqoti misolida tahlil qilingan. Tadqiqotchining tazkirada aks etgan ijodkorlar ijtimoiy-siyosiy, madaniy pozitsiyasiga doir tahliliy tasniflari, farazlariga munosabat bildirilgan.

**Kalit soʻzlar:** *Alisher Navoiy, statistik tahlil, muxolifat, “Majolis un-nafois”, fors manbalari.*

**Abstract.** This article analyzes the experience of new approach to "Majolis un-nafois" by Alisher Navai on the example of an Iranian scholar's research. Her analytical classifications and hypothesis on socio-political, cultural position of the poets in temurid's period reflected in tezkire are critically reviewed.

**Key words:** *Alisher Navai, statistical analysis, opposition, "Majolis un-nafois", persian sources.*

Angliyalik olim, Vilyam Shekspir ijodiga oid yirik tadqiqotlar yaratgan Jorj Harrison (George Harrison, 1894-1991) gʻarb mutafakkiri va u yaratgan adabiy meros haqida shunday degan edi: "Ingliz tilida soʻzlashadigan dunyo xalqlarining har bir xonadonida Muqaddas Kitob (Injil